

## FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7452932>



**ELSEVIER**



**Qobilova Nargiza Sulaymonovna.**

*Buxoro Davlat Universiteti PhD, dotsent*

**Gaffurova Gulnoza Ravshan qizi**

*Buxoro Davlat Universiteti 2-bosqich magistranti*

*E-mail: [begin1977@mail.ru](mailto:begin1977@mail.ru)*

*E-mail: [gulnoz.gaffurova@mail.ru](mailto:gulnoz.gaffurova@mail.ru)*



**Abstract:** Tilshunoslikda frazeologik birliklar talqiniga bo`lgan munosabat ushbu fan rivojlanishining chuqur ildizlariga borib taqaladi. Ammo zamonaviy tilshunoslik sohalari paydo bo`lishi bilan bir qatorda ushbu masalaga bo`lgan yondashuvlar va talqinlar ham o`zgarib bormoqda. Ushbu maqolada frazeologik birliklarning leksik hamda semantik xususiyatlari badiiy asarlar asosida keng tahlil qilinadi hamda uning til taraqqiyotidagi o`ziga xos o`rinlari ustida so`z yuritiladi.

**Keywords:** zamonavit tilshunoslik, frazeologik birlik, frezeologizm, semantika, turg`un birlikma, xalq madaniyati, urf-odat, an`ana.

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

**Received:** 17-12-2022

**Accepted:** 18-12-2022

**Published:** 22-12-2022

## ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ

**Кобилова Наргиса Сулеймановна**

*БухГУ, доктор философии по филологическим наукам, доцент*

**Гаффурова Гулноза Равшановна,**

*БухГУ, магистрант*

*Эл.адрес: [begin1977@mail.ru](mailto:begin1977@mail.ru)*

*Эл.адрес: [gulnoz.gaffurova@mail.ru](mailto:gulnoz.gaffurova@mail.ru)*



**Abstract:** языкознание делится на толкование фразеологизмов, отношение восходит к глубоким корням развития этой науки. Но вместе с появлением современных лингвистических полей меняются и подходы и трактовки этого вопроса. В данной статье широко анализируются лексико-семантические особенности фразеологизмов на материале художественных произведений, являющихся духовными украшениями языка, и обсуждается их особое место в языковом развитии.

**Keywords:** zamonavit tilshunoslik, frazeologik birlik, frezeologizm, semantika, turg`un birlikma, xalq madaniyati, urf-odat, an`ana. современная лингвистика, фразеологизм, семантика, стабильное соединение, народная культура, обычайб традиция

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

**Received:** 17-12-2022

**Accepted:** 18-12-2022

**Published:** 22-12-2022

## LEXIC-SEMANTIC FEATURES OF PHRASEOLOGICAL UNITS

**Qobilova Nargiza Sulaymonovna**

*Bukhara State University PhD, associate professor*

**Gaffurova Gulnoza Ravshanovna**

*Bukhara State University 2nd year master student*

*Email: [begin1977@mail.ru](mailto:begin1977@mail.ru)*

*E-mail: [gulnoz.gaffurova@mail.ru](mailto:gulnoz.gaffurova@mail.ru)*

**Abstract:** The relationship to the interpretation of phraseological units in linguistics goes back to the deep roots of the development of this science. But along with the emergence of modern linguistic fields, approaches and interpretations to this issue are also changing. In this article, the lexic and semantic and cultural features of phraseological units are widely analyzed on the basis of artistic works and their special place in language development is discussed.

**Keywords:** modern linguistics, phraseological units, phraseology, semantics, stable compound, folk culture, custom, tradition..

**Received:** 17-12-2022

**Accepted:** 18-12-2022

**Published:** 22-12-2022

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

## KIRISH

Frazeologik birliklar - umumiy yaxlit ma`nosi qisman ularning tarkibiy qismlarining semantikasi bilan bog`liq bo`lgan, majoziy ma`noda ishlatiladigan turg`un birikmalardir. Tilning frazeologik fondi xalq madaniyati va mentalitetining qimmatli ma`lumotlar manbai sanaladi. Frazeologizmlarda muayyan xalqning miflari, udumlari, rivoyatlari, taomillari haqidagi tasavvurlari mujassamlashgan bo`ladi.

Frazeologizmlarning semantikasida xalq madaniyati rivojining uzoq jarayoni aks etadi. Har bir tilning frazeologizmlarida xalq hayotiga mansub ijtimoiy-tarixiy voqea hodisalar, axloqiy va ma`naviy-madaniy me`yorlar, diniy tasavvurlar, molliiy an`ana va urf-odatlar, madaniy stereotiplar va arxetiplar o`z aksini topgan bo`lib, ular avloddan avlodga uzatiladi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Frazeologik birliklarning falsafiy-nazariy asoslari, mantiqiy tahlili, farqli jihatlari, leksik-semantik xususiyatlari hamda falsafiy paradigmasini aniqlash borasida N.Arutyunova, M.Blek, P.Rikyor, E.Kassirer, R.Yakobson va E.MakKormaklar ilmiy tadqiq qilganlar. Shuningdek, Buslayev, Larin, M.Jonson, Ye.Gogonenkova, Ye.Akishina, N.Sharbonel, G.Ermolenko, I.Polozova, M.Merleau-Ponty, V.Pustovalova, D.Montminy, Ye.Reshetnikova, Ye.Malishkin va D.Ashurovalar frazeologik birliklar tushunchasining kognitiv, pragmatik, lingvomadaniy jihatlarini ochib berganlar.O`zbek tilshunoslari Sh.Rahmatullayev, M.Mirtojiev, M.Mamadaliyeva va G.Qobuljonovalar o`zbek tili materiali asosida frazeologik birliklarning milliy-madaniy, lisoniy, semantik hamda kognitiv xususiyatlarini tadqiq etishgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada frazeologik birliklarning tuzilishi, shakllari, ularning lingvistik ahamiyati hamda til taraqqiyotida tutgan o`rni muhokama qilinadi. Ularning leksik-semantik xususiyatlari misollar asosida keng yoritiladi.

## TAHLILLAR VA NATIJALAR

Frazeologik birliklar - umumiy yaxlit ma`nosi qisman ularning tarkibiy qismlarining semantikasi bilan bog`liq bo`lgan, majoziy ma`noda ishlatiladigan turg`un birikmalardir. Tilning frazeologik fondi xalq madaniyati va mentalitetining qimmatli ma`lumotlar manbai sanaladi. Frazeologizmlarda muayyan xalqning

miflari, udumlari, rivoyatlari, taomillari haqidagi tasavvurlari mujassamlashgan bo`ladi.

Mashhur rus tilshunosi B.A.Larinning ta`kidlashicha, “Frazeologizmlar har doim xalq dunyoqarashi, jamiyat tuzilishi va o`z davrining mafkurasini bilvosita aks ettiradi”.

Frazeologizmlarning semantikasida xalq madaniyati rivojining uzoq jarayoni aks etadi. Har bir tilning frazeologizmlarida xalq hayotiga mansub ijtimoiy-tarixiy voqea hodisalar, axloqiy va ma`naviy-madaniy me`yorlar, diniy tasavvurlar, molliiy an`ana va urf-odatlar, madaniy stereotiplar va arxetiplar o`z aksini topgan bo`lib, ular avloddan avlodga uzatiladi.

F.I Buslayevga ko`ra, frazeologizmlar o`ziga xos kichik dunyo bo`lib, ular ajdodlar tomonidan avlodlarga meros qilib qoldirilgan axloqiy qoidalar va haqqoniy fikrlarni o`z ichiga olgan holda qisqa, hikmatli ifodalardir. Ular millatning o`ziga xos ruhini betakror obrazlar vositasida ifodalaydigan har qanday milliy tilning jonidir”.<sup>128</sup>

V.A.Maslova frazeologizmlarni tahlil qilib, ular haqida quyidagi gipotezani ilgari suradi:

1. Frazeologizmlarning aksariyatida aniqlanishi lozim bo`lgan milliy madaniyatning izi mavjud.

2. Frazeologik birliklarning ichki shaklida obyektiv olamning u yoki bu hodisalarini obrazli tasavvuri bo`lgan madaniy informatsiya saqlanadi va u frazeologizmga madaniy-milliy bo`yoq beradi.

3. Madaniy-milliy o`ziga xoslikni aniqlashda madaniy-milliy konnotatsiyani ochish juda muhimdir.<sup>129</sup> Olamning lisoniy manzarasini yaratishda frazeologizmlar alohida rol o`ynaydi. Aniqrog`I, olam lisoniy manzarasining bo`lagidir. Frazeologik birliklar “Xalq hayotining ko`zgusi”dir. Frazeologik birliklarning tabiati til egasining bilimlari, hayotiy tajribasi va mazkur tilda so`zlovchi xalqning madaniy-tarixiy an`analari bilan chambarchas bog`liqdir. Frazeologik birliklarning semantikasi inson va uning faoliyatini tavsiflashga qaratiladi.<sup>130</sup>

Frazeologik birliklar har doim subyektga qaratilgan bo`ladi, ya`ni ular olamni tasvirlash uchungina emas, balki uni talqin qilish, baholash va unga subyektiv munosabat bildirish uchun yuzaga keladi. Frazeologizm va metaforalar aynan shu jihati bilan boshqa atov birliklaridan ajralib turadi.

Har bir xalq vakili o`z fikrini obrazli yoki his-hayajonli tarzda ifoda etish maqsadida barqaror so`z birikmalari yaratishda o`ziga yaqin yoki tanish narsa va hodisalar nomlaridan foydalanishga harakat qiladi. Masalan, “boshdan oyoq”,

<sup>128</sup> Ф.И.Буслаев Русские пословицы и поговорки, собранные и объясненные.-М.:1954.-с.37

<sup>129</sup> В.А.Маслова Лингвокультурология. Учеб. Пособие для студ. Высш. Учебный заведений.-М.: Издательский центр «Академия», 2001.-с.82

<sup>130</sup> Фраzeологический словарь русского литературного языка/ под ред. А.И.Федорова. – М., 1996; Образные средства русского языка / под ред. В.Н.Телия.- М.,1995

“to`la to`kis”, “butunlay”, “tamomila” tushunchalarining obrazli ifodasi uchun yunon tilida *Om alpha do omega* iborasi ishlatiladi. Mazkur iboraning ta`sirida rus tilida *Om A do Я* iborasi paydo bo`lgan. Yoki yunon tilida “ibtido va intiho”, “hayotning boshi va oxiri” ma`nosida “Alfa va omega” iborasi ishlatiladi. Ayni iboralarning obrazlilik mazkur tillardagi birinchi va oxirgi harfkarning majoziy qo`llanilishi – bir-biriga qarshi qo`yilishi asosida vujudga kelgan.

Lingvokulturalogiya fanining asoschilaridan biri, Moskva frazeologik maktabining rahbari V.N.Teliyaning yozishicha, tilning frazeologik tarkibi “lingvomadaniy jamoa milliy o`zligini ko`radigan ko`zgudir”. Aynan frazeologizmlar til egasining dunyoni, hodisalarni o`ziga xos ko`rinishini namoyon etadi”<sup>131</sup>. Masalan, o`zbek xalqining turmush tarzi (“bozor bahosi” - hamma qatori, hech yon bosmay, “xirmon ko`tarmoq” - ekin-tekinni yig`ib, hosil me`yorini hisob-kitob qilmoq), milliy kiyim kechaklari (“to`n kiygizmoq” - qo`shib- chatib, pardozlab gapirmoq, “kavushini to`g`rilab qo`ymoq” - haydab yubormoq) yeguliklari (“xamir uchidan patir” - katta narsadan boshlang`ich kichik bir qism) va hokazo.

Ma`lumki, xalq madaniyati va mentalitetining qimmatli ma`lumotlar manbai bo`lgan tilning frazeologik fondini boyitishda yozuvchilarning o`rni beqiyosdir. O`zbek milliy frazeologizmlarining boyishi va rivojlanishiga eng kata hissa qo`shgan yozuvchiardan biri Abdulla Qahhoridir. Yozuvchining xalq iboralaridan foydalanish mahorati, uning frazeologik novatorligi qator ilmiy tadqiqotlarda o`rganilgan. Chunki Abdulla Qahhor qo`llagan frazeologizmlarning aksariyatida madaniy-milliy konnotatsiya kichli, ularda milliy madaniyatning ruhi, izi mavjud.

“Xalqning so`z donoligini mukammal egallagan yozuvchi o`z hikoyalarida iboralardan muntazam va ifoda maqsadiga favqulotda muvofiq tarzda foydalanadi. O`zi ham yangi iboralar yaratadi. Ammo bu yangi iboralar xalqning o`zida mavjud bo`lgan iboralarning modeliga asoslangan bo`ladi. Shuning uchun yozuvchining yangi iborasini o`qiganda, xalqning o`ziga tegishli ibora ham esga tushadi. Aytish mumkinki, yozuvchi bitta iborani qo`llaydi, lekin yozuvchi maqsadi uchun ikkita ibora “ishlaydi”.

Masalan, “*Eshakni yashirsangiz, hangrab sharmanda qiladi*” (“Ikki yorti bir butun” hikoyasi). Ayni ibora Qahhorniki, bu iborani o`qish bilan “*Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi*” degan xalq iborasi esga tushadi, ya`ni tekstda implisit tarzda bu ibora ham ishtirok etadi, uni birinchi ibora ovozsiz “chaqiradi”. Bu – Qahhorona mahorat”<sup>132</sup>

A.Qahhorning xalq iboralari modeli asosida yaratgan va bizga meros qilib qoldirgan ayrim iboralari bugungi kunda haqiqiy xalq iborasiga aylangan. O`zbek tilida “tekinxo`r” ma`nosini ifodalagan “tekin tomoq” iborasi mavjud. A. qahhor

<sup>131</sup> Образные средства русского языка / под ред. В.Н.Телия.- М.,1995

<sup>132</sup> Миртожиев М, Махмудов Н. Тил ва маданият.- Т. «Узбекистон», 1992.-90Б

ana shu iboraning strukturasi va tayanch komponenti *tekin* soʻzi asosida yangi, original ibora yaratdi: *tekin quloq*. Bu ibora tamomila yangi tushunchani, yaʼni “hech qanday qarshiliksiz quloq soladigan, toqat bilan tinglaydigan odam” tushunchasini ifodalaydi.

*Odamlarki bor, halol mehnat bilan oʻzini koʻrsatgani erinadi-yu, olamda borligini maʼlum qilib turish uchun koʻproq gapirishga harakat qiladi; maklis-pajlisda soʻz tegib qolsa, foydali biron fikr aytish uchun emas, gapirish, faqat gapirish uchun gapiradi. Jamiyatda oʻzi koʻrinmay, faqat tovushi chiqadigan bu xildagi odamlar, tekin quloq topilsa, bitta eski toʻppi toʻgʻrisida sakkiz soat suv ichmasdan gapiradi.*<sup>133</sup>

Xalq ogʻzaki ijodi, dostonlar, turli – tuman afsona va rivoyatlar frazeologizmlarni shakllantiradi, ularga sayqal beradi, ularni xalq mulikiga aylantiradi. Binobarin, “Alpomish”, “Goʻroʻgʻli”, “Rustamxon”, “Kuntugʻmish”, kabi ulkan dostonlarda oʻzbek xalqining koʻhna va hamisha navqiron tili oʻzining butun imkoniyatlari va goʻzalligi bilan jilvalangan.

“Alpomish” dostonidagi betakror, gʻoyatda nozik iboralarni koʻrib lol qoladi odam. Ana shunday iboralardan biri “gap yetaklamogʻ” dir.

“Yurishimiz qirqin qizlar bilamasin

U qurgʻurlar gap yetaklab yurmasin

El ichinda malomat soʻz boʻlmasin”

Mazkur iboraning hozirgi tilimizdagi muqobili boʻlmish “gapni koʻtarib yurmoq” iborasida gapning bevosita harakati yoʻq. u goʻyo oddiy bir narsa. Uni faqat koʻtarib yuradilar, xolos. “Gapni yetaklab yurmoq” shuning uchun ham oʻtkirki, unda gapning oʻzi bevosita yuradi, faol harakatga qodir. Faqat uni chirkin maqsadlarda xizmat qildirish uchun qayoqqa xohlashsa, oʻsha yoqqa yetaklab yuradilar.<sup>134</sup>

Frazeologizmlarning muayyan guruhi xalqlarning urf-odatlarini, anʼanalari va irimlari taʼsirida shakllanadi. Jumladan, oʻzbek xalqida azaldan quloqtishlar odati bor. Quloqtishlar yaʼni beshikketdi odati hozirgi kunda Surxondaryo viloyatining ayrim qishloq va tumanlarida saqlanib qolgan. Mazkur odatni ifodalovchi *qulogʻini tishlamoq* iborasi qoʻllaniladi.

M: *Qizimni tilga olaverma, tugʻilgan kunida qulogʻini tishlagan kuyovi bor.*

Oʻzbek xalqining nikohlash marosimi, unashtirish odati bilan bogʻliq iboralari tarkibida somatik soʻzlar faol qatnashadi: *boshlarini qovushtirmoq, boshlarini birkitmoq, boshlarini qoʻshmoq, boshini ikkita qilmoq, bir yostiqqa bosh qoʻymoq, boshini bogʻlamoq va hokazo.*

Oʻzbek oilasida bola tugʻilishi bilan chilla davriga kata eʼtabor beriladi. Farzand koʻrgan ayol va uning chaqalogʻi chilla davrida maxsus sharoitda saqlanib, turli ins -jinslar va kasalliklardan himoya qilinadi. Anʼanaga koʻra on ava

<sup>133</sup> Tanlangan asarlar, T. 1957. 279-bet

<sup>134</sup> Mahmudov N. til. – Toshkent: Yozuvchi, 1998.-B.30.

chaqaloq 40 kungacha uydan chiqmasligi, begona uyga odam kirmasligi va chillali uyda chiroq o'chmasligi kerak. Chilla an'anasi "tuqqaniga qirq kun bo'ldi" ma'nosidagi *chillasi chiqdi* iborasi bilan ifodalanadi.

- *Chillasi chiqishi bilan Hadya ham alohida qizlar yacheykasi tuzishga bordi.*

Frazeologik birliklarning tayanch komponenti sifatida tarixiy va diniy mifologik shaxslarning nomlari kelishi mumkin: *Xo'ja ko'rsinga* "shunchaki nomigagina", *Musoning alamini Isodan olmoq* "aybdor chetda qolib, aybsiz kishiga qarshi ish tutmoq", *Xizrni yo'qlasam bo'lar ekan* "kimnidir ko'rish istagi qo'qqisidan ro'yobga chiqqanda aytiladigan ibora", *Doqqi Yunusdan qolgan* "juda ham eski, qadimiy".

Turli geografik joy nomlari ham frazeologik birliklarning tayanch komponentlari vazifasida keladi. Masalan, o'zbekcha frazeologik birliklar tarkibida O'zbekiston hududida joylashgan shahar, qishloq, daryo va sahrolar nomlari uchraydi. Frazeologik birliklar tarkibida qo'llangan toponimlar o'zlari jonlantiradigan sifat va belgilar, chunonchi uzoqlik, saxiylik, taqvodorlik kabi alomatlar timsollari sifatida namoyon bo'ladi. *Beva xotinga Buxorodan it huradi, onasini Uchqo'rg'onidan ko'rsatmoq* birliklari tarkibidagi Buxoro, Uchqo'rg'on O'zbekiston tarkibida joylashgan joy nomlaridir.

O'zbek xalqi kiyinish madaniyati nuqtai nazaridan ham dunyodagi xalqlarning oldingi saflarida turadi. Bir necha ming yillar ilgari ota-bobolarimiz egnilarida yaktak -lozim, oyoqlarida kovush-mahsi, etik boshga shabpo'sh, do'ppi, telpak, ustiga chopon to'n kiyib, beliga belbog', qars boylashgan. Shuning uchun ham elimizda erkak kishilikni ramziy ifodalsh xususida "*belingda belbog'ing bormi?*" degan ibora qolgan.

Har bir xalqning o'ziga xos kiyim-kechak nomlari va realiyalari ham milliy frazeologizmlarni hosiul qilishda asos vazifasini o'taydi. Masalan, *to'nini teskari kiyib olmoq* "o'chakishgan holda qaysarlik qilmoq", *do'ppini osmonga otmoq* "juda xursand bo'lmoq", *do'ppisi tor kelmoq* "imkonsiz og'ir vaziyatga tushmoq", *bir-ikki kiyimni ortiqroq yirtgan* "yoshi kattaroq, tajribasi ko'proq", *chorig'ini sudramoq* "zo'rg'a, amal-taqal qilib yashamoq", *paytavasiga qurt tushmoq* "xotirjamligi buzilib, sarosimaga tushmoq" iboralari shular jumlasidandir.

O'zbek xalqi kundalik hayotda ishlatiladigan uy-ro'zg'or buyuymlari ham muayyan frazeologizmlarni shakllantirganini ko'rish mumkin: *ko'rpasiga qarab oyoq uzatmoq* "imkoniyatini hisobga olib ish tutmoq" ma'nosida ishlatiladi.

- *Ha, onang ko'rpasiga qarab oyoq uzatsin, uqdingmi?*

Yoki *chovlisini solmoq* iborasi "aralashmoq" ma'nosida keng ishlatiladi:

- *Nigoraga hayronman, har narsaga o'z chovlisini solavermay, tinchgina yursa nima qilarkin?*

Iste`mol qilinadigan taom nomlari mavjud bo`lgan frazeologik birliklar ham ko`p hollarda milliy xususiyatga ega bo`ladi: *osh bermoq* 'to`y-marosim munosabati bilan katta qozonda palov damlatib, ziyofat o`tkazmoq;

- *Xuddi shu o`g`li tug`ilganda Pirimqul hoji qo`y ham, ho`kiz ham so`ydirib, yurtga osh berdi.*

*Tog`ni talqon qilmoq* " har qanday katta va og`ir ishni ham bajarmoq"

- *Undan keyin charchamaguningcha chopma, ayni qizishgan paytingda, g`ayrating kelib, tog`ni talqon qilaman deganingda dam ol.*

Ayrim frazeologik birliklarning tarkibida keladigan musiqaviy asbob nomlari ham iboralarga milliy ruh bag`ishlaydi. Masalan, o`zbek tilida "ro`yobga chiqishi aniq bo`lmagan narsa haqida hovliqmalik bilan vaqtdan oldin gapirmoq" ma`nosida *to`ydan ilgari nog`ora qoqmoq* iborasi, "birovning ko`rsatmasi bilan biror ish qilmoq" ma`nosining obrazli ifodasi uchun *birovning nog`orasiga o`ynamoq* iborasi ishlatiladi.

### XULOSALAR

Xullas, frazeologizmlar dunyo, obyektiv borliq va jamiyat haqida madaniy informatsiya tashuvchi lingvomadaniy birlik hisoblanadi. Shuning uchun ham frazeologik birliklar o`zida xalq mentaliteti va madaniyatini saqlovchi "hikmatlar xazinasi" bo`lib, ular avloddan avlodga meros qoldiradi.

O`zbek tilining frazeologik boyligi haligacha to`liq to`planmagan. Frazeologizmlar lingvomadaniy jihatdan o`rganilmagan. Shuning uchun frazeologik birliklarni yig`ish, tasniflash, lingvomadaniy nuqtai nazardan tadqiq etish, ularni o`zga madaniyat bilan qiyoslab o`rganish bugungi o`zbek tilshunosligining kechiktirib bo`lmaydigan dolzarb masalalaridan biridir.

Xalqlar paydo bo`lgan vaqtlardan buyon necha ming yillar o`tdi. Tarixiy o`rganishlar natijasida har bir xalqning kelib chiqishi, ijtimoiy hayoti, madaniyati o`rganildi. Biz yozma manbalar orqali nafaqat xalqlarning tili, balki o`sha xalqning madaniyatini, qadriyatlarini ham yanada chuqurroq o`rganib bordik.

### ADABIYOTLAR:

13. КОБИЛОВА Н. ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ПСИХОЛОГИЗМ И ПРИНЦИП ЭПИЧЕСКОГО ИЗОБРАЖЕНИЯ. МЕЖДУНАРОДНЫЙ АКАДЕМИЧЕСКИЙ ВЕСТНИК Учредители: Автономная некоммерческая организация "Исследовательский центр информационноправовых технологий" ISSN: 2312-5519 <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=38533356>

14. 2. КОБИЛОВА НАРГИСА СУЛЕЙМАНОВНА LITERARY PSYCHOLOGY AND STYLE THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука ISSN: 2308-4944eISSN: 2409-0085 <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=41328882>

15. 3. KOBILOVA NARGISABEGIM SULAYMONBEKOVNA BENEFITS OF USING SONGS IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES TO YOUNG LEARNERS <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=35081671>
16. Kobilova, N. S. (2022). Promotion of Cooperative Learning Through TPR Activities. Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes, 24-26. Retrieved from <http://www.conferenceseries.info/index.php/online/article/view/32>
17. Rasulov, Z. (2022). ОБ ОБЪЕКТЕ ИССЛЕДОВАНИЯ КОГНИТИВНОЙ СЕМАНТИКИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 8(8). извлечено от [http://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/4346](http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4346)
18. Rasulov, Z. (2021). Reduction as the way of the language economy manifestation. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 1(1). извлечено от [http://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/2943](http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/2943)
19. Д. С, Ўраева, М.И, Гадоева. (2022). Халқ Маросимлари Ва Уларга Алоқадор Жанрларда Соматизмларнинг Поэтик Ифодаси. Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes, 16-19. Retrieved from <http://www.conferenceseries.info/index.php/online/article/view/30>
20. Buslayev F.I “Russkie poslovitsi i pogovorki” М.: 1954
21. Fedorova A.I “Frazelogicheskiy slovar` russkogo literaturnogo yazika” М.: 1996
22. Maslova V.A “Lingvokulturologiya” М.: 2001
23. Mirtojdiyev M., Mahmudov N. “Til va madaniyat” Т.1992
24. Teliya V.N “Obraznie sredstva russkogo yazika” М.: 1995
25. Abdulla Qahhor “Tanlangan asarlar” Т., 1992
26. Nematillokizi K. N. et al. Professional proficiency progress in a foreign language on the example of students of tourism //Journal of Critical Reviews. – 2020. – Т. 7. – №. 6. – С. 1249-1255.
27. Xayrullojeva N. THE CONCEPT OF NATURE IN MODERN AMERICAN LITERATURE //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
28. Zulfizar Khudoyberdievna, S. . (2022). THE MAIN FEATURES OF TRANSLATION OF PHRASEOLOGY FROM ENGLISH INTO UZBEK. Scientific Impulse, 1(3), 523-526.